

**YURIDIK VA YURIDIK MAQOMGA EGA BO'LMAGAN TADBIRKOR
ISTE'MOLCHILAR UCHUN ELEKTR TA'MINOTI
SHARTNOMASI**

2022 yil 26 enkaps № 140147 son

Almalig shahar
T(SH)ETK nomi

- **"TOSHKENT HETK" AJ** tuman (shahar)
elektr ta'minoti korxonasi (keyingi o'rirlarda "Korxona" deb yuritiladi)
№ sonli **Bosh ishonchnomasi** asosida faoliyat yurituvchi rahbari
M. Junipov (tuman(shaxar) elektr karmog'lar korxonasi rahbarining F.I.SH.) bir tarafdan va
- **Almalig shahar hokimligi** (iste'molchining nomi)
(keyingi o'rirlarda "Iste'molchi" deb yuritiladi) ning **nizom** asosida
faoliyat yurituvchi raxbari *G. M. Hamdamov* (iste'molchi rahbarining F.I.SH.) ikkinchi
tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

Ushbu elektr ta'minoti shartnomasiga (keyingi o'rirlarda - **SHartnoma**) deb ataladi
muvofiq, "Ta'minotchi korxona" "Iste'molchi"ga elektr energiyasini ulangan tarmoq orqali etkazib
berish va "Iste'molchi" iste'mol qilingan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash majburiyatini oladi.

II. ETKAZIB BERILGAN ELEKTR ENERGIYANI XISOBGA OLİSH

2.1. Elektr energiya iste'molining yillik shartnomaviy hajmi:

Aktiv _____ kVt.s. reaktiv _____ kVar.s.

2.2. Etkazib beriladigan energiyaning shartnoma tuzilgan kunidagi umumiylar narxi
2999 700 so'mni, tarif bo'yicha *450* tashkil etadi.

tarif nuri: tabaqalashirilgan, bir stavkali yoki axoliga tenglashtirilgan, (keraklisi yozilsin)

2.3. "Iste'molchi"ga etkazib beriladigan elektr energiyasining oyalar kesimidagi yillik xajmi
ushbu shartnomaga 1-ilovada keltirilgan.

2.4. "Iste'molchi" tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasining haq to'lanishi lozim
bo'lgan hajmi ushbu shartnomaga 2-ilovada nazarda tutilgan xisobga olish priborlarining
kor'satkichlari asosida, hisobga olish priborlari ulangan tok va kuchlanish transformatorlarining
transformatsiya koefitsientlari inobatga olingan holda aniqlanadi.

2.5. Iste'molchilarning (maishiy iste'molchilar va tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari) elektr
energiyasini xisobga olish uskulunari, shuningdek elektr energiyasini xisobga olishning boshqa
vositalari iste'molchining maflag'lari xisobiga sotib olinadi, davlat qiyoslovidan o'tkaziladi,
xududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan bepul o'rnatiladi, plombalanadi va ro'yxatdan
o'tkaziladi.

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Elektr energiyasi uchun hisob-kitoblar tabaqalashirilgan, bir stavkali yoki aholiga
tenglashtirilgan tariflar asosida amalga oshiriladi.

3.2. Ulangan quvvati 750 kVA va undan ortiq bo'lgan "Iste'molchi" (byudjet tashkilotlari, suv ta'minoti tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilarini uyushmalarining nasos stansiyalari, shuningdek Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan nasos stansiyalari bundan mustasno) elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni tabaqlashtirilgan tarif bo'yicha amalga oshiradi.

Iste'mol qilingan energiya uchun tabaqlashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitoblar:
yarmi tig'iz davr – sutkaning yorug' vaqtida (soat 9⁰⁰ dan 17⁰⁰ gacha) – belgilangan tarif bo'yicha.

tig'iz davr – eng katta yuklamali soatlarda (yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlari: ertalabki eng katta miqdor soat 6⁰⁰ dan 9⁰⁰ gacha, kechki eng katta miqdor soat 17⁰⁰ dan 22⁰⁰ gacha) belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda o'suvchi koefitsientni ko'llash orqali;

tungi davr – sutkaning qorong'i vaqtida (eng kam yuklamali soatlarda: 22⁰⁰ dan 24⁰⁰ gacha va 00⁰⁰ dan 6⁰⁰ gacha) – belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar kamayuvchi koefitsientni ko'llash orqali amalga oshiriladi.

Beglangan tarif II-tarif guruhi bir stavkali iste'molchilarga qo'llaniladigan tarifga tug'ri keladi.

Tabaqlashtirilgan tarif qo'llanilmaydigan iste'molchiga nisbatan energiya uchun hisob-kitoblarda bir stavkali tarif qo'llaniladi.

Ulangan quvvati 750 kVA gacha bo'lgan, elektr energiyasini realizatsiya qilishda narxni shakllantirishning alohida tartibi belgilanadigan tashkilotlar ro'yxitiga kiritilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi va ayrim xizmatlar ko'rsatuvchi iste'molchilar uchun to'lovlar Hukumat qarori bilan belgilanadigan tariflar bo'yicha amalga oshiradi.

Ulangan quvvatidan qat'iy nazar, kripto-aktiv va mayning sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi iste'molchilar (turli kriptovalyutalarda yangi birliklar va komissiya yig'implari formatida mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta'minlash va yangi bloklar yaratish bo'yicha faoliyat) foydalangan elektr energiyasi uchun to'lovlarini tegishli tarif guruhibiga asosan belgilangan tarifga nisbatan 3 barobar o'suvchi koefitsientga muvofiq to'laydi.

3.3. Bir necha tarif guruhlariiga mansub iste'molchi bilan hisob-kitoblar, har bir tarif guruhibiga alohida o'rnatilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

"Iste'molchi" tomonidan aloxida xisobga olish priborlari o'rnatish rad qilingan taqdirda, elektr energiyasi uchun to'lovlar foydalaniyatgan eng yuqori tarif guruxi bo'yicha hisob kitob qilinadi.

3.4. "Iste'molchi" hisob-kitob davri tugagandan so'ng Elektr ta'minoti korxonasi vakolatli vakili bilan bирgalikda (mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda) yoki uning ishtirokisiz hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini har oyda yozib oladi va ushbu shartnomaning 5-ilovasiga muvofiq shaklda energiya sarfi bo'yicha hisobot tuzadi.

"Iste'molchi" "Ta'minotchi korxona"ga energyaning sarflanishi to'g'risidagi hisobotni o'z qo'lli bilan, faksimil, elektron yoki pochta aloqasi orqali har oyning "—" sanasigacha taqdim etadi.

Bunda, to'lovlarini tabaqlashtirilgan tarifda amalga oshiradigan "Iste'molchi"lar bo'yicha elektr energiya sarfi bo'yicha hisobotda foydalaniylgan elektr energiya (aktiv va reaktiv) to'liq hajmidan tashqari tig'iz, yarmi tig'iz va tungi paytlarda foydalaniylgan elektr energiya hajmlari aloxida ham ko'rsatilishi shart.

3.5. Elektr energiyasi uchun amaldagi tariflar o'zgargan taqdirda, "Hududiy elektr tarmoqlari" korxonasi ularning kuchga kirishidan kamida 15 kun oldin qarorni ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

Bunda elektr energiyasi uchun tariflar o'zgargan sanadan qatiy nazar, elektr ta'minoti shartnomasi o'z kuchida qoladi va iste'molchi foydalanilgan elektr energiyasi uchun yangi tarif kuchga kirgan kundan boshlab xaq to'lashga majburdir.

Tarif o'zgargan taqdirda, iste'molchilar elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya)ning avans tariqasida to'langan xajmi uchun to'lov kunidan boshlab keyingi bir oydan ortiq bo'limgan muddatda qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod etiladi.

Arifmetik xatoliklar, tariflarni noto'g'ri qo'llash tufayli paydo bo'ladigan kam va ortiqcha to'lovlar tegishli tarif bo'yicha kWt/soatlarda qayta hisoblab chiqiladi va "Ta'minotchi korxona" tomonidan da'vo muddati doirasida ko'rsatkichlardi tafovut yoki qo'shimchalar bilan birgalikda hisobga olinadi.

3.6. "Iste'molchi"ga elektr energiyasi etkazib berish 100 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshiriladi. Bunda, hisob-kitobni 50 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan iste'molchilar hisob-kitob amalga oshiriladigan davrni ko'rsatib hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin bildirgi tartibida Ta'minotchi korxonaga murojaat qilganlari taqdirda elektr energiyasi iste'molchilarga 50 foiz oldindan haq to'lash asosida etkazib berilishiga yo'l qo'yiladi. Oldindan haq to'lanmagan hamda 50 foiz oldindan haq to'layotgan iste'molchilar tomonidan oyning oxirigacha yakuniy hisob-kitob amalga oshirilmagan hollarda mazkur iste'molchilarga nisbatan elektr tarmoqlaridan to'liq uzishgacha bo'lgan choralar ko'rildi.

3.7. "Ta'minotchi korxona" "Iste'molchi"ning energiya sarfi to'g'risidagi hisoboti asosida belgilangan tartibda hisob-kitobni amalga oshiradi va besh kun ichida to'lov amalga oshirish uchun hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini taqdim etadi.

"Iste'molchi" turli tarif guruqlariga tegishli bo'lgan bir nechta ob'ektga ega bo'lsa, har bir tarif guruhi uchun tarif ko'rsatilgan holda umumiylisob-faktura taqdim etadiladi.

"Ta'minotchi korxona" tomonidan maxsus dasturiy mahsulot orqali hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini shakllantiriladi hamda iste'molchi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanib, operator orqali rouming operatoriga yuboriladi.

(Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 25.06.2019 yildagi 522-sonli "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraq-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori)

3.8. Hisobga olish pribori ushbu shartnomaga 3-ilovaga muvofiq, elektr tarmoqlarining mansublik balansi bo'yicha farqlash dalolatnomasi va tomonlarning ekspluatatsiya javobgarligi asosida aniqlanadigan elektr tarmog'ining mansublik balansi chegarasida o'rnatilmaganda, chegaradan hisobga olish pribori o'rnatilgan joygacha bo'lган uchastkada energiyaning texnologik sarflanish hajmi "Iste'molchi" bilan birgalikda hisoblash yo'li orqali aniqlanadi va ushbu shartnomaga 4-ilovaga muvofiq dalolatnomada ko'rsatiladi.

Bunda, 750 kVA va undan yuqori quvvatga ulangan, tabaqalashtirilgan tarifda to'lovlarini amalga oshiradigan "Iste'molchi" uchun energiyaning texnologik sarflanish hajmi sutkaning tig'iz, yarim tig'iz va tunji paytlari uchun alohida aniqlanib, mutanosib ravishda jami olingan elektr hajmining tegishli paytlariga to'lov haqini yozish uchun qo'shib boriladi. (6-,7-ilovalarni reaktiv quvvatga ega va texnologik bronli iste'molchilar to'ldiradi).

3.9. Elektr energiyasi yagona elektr energetika tizimidan tranzit bo'yicha iste'molchining elektr tarmog'i orqali hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmog'iga uzatilganda,

iste'molchi tarmoqlaridagi elektr energiyasi texnologik sarfining bir qismi, iste'molchining elektr tarmog'iga kelib tushgan elektr energiyasining umumiy miqdoriga nisbatan hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmog'iga iste'molchi tomonidan uzatilgan elektr energiyasi miqdoriga mutanosib ravishda, yagona elektr energetika tiziminining elektr tarmoqlaridagi texnologik sarflarga o'tkaziladi.

3.10. Elektr energiyasi sarfi to'g'risidagi hisobot iste'molchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya) iste'molining shartnomaviy miqdori bo'yicha yoki o'tgan hisob-kitob davr uchun elektr energiyasi iste'molining o'rtacha sutkalik amaldagi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisob-kitob qilinadi.

Bunda hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari nazorat tartibida Ta'minotchi korxona tomonidan yozib olingandan keyin amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qayta hisob-tomonidan yozib olingandan keyin amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qayta hisob-kitob qilinadi. Qayta hisob-kitob iste'molchi yoki uning vakili ishtirokida yoxud uning ishtirokisiz belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.11. Ta'minotchi korxona iste'molchilar bilan birlgilikda iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi miqdorini aniqlash uchun ulardagi elektr energiyasini xisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini xar oyda yozib olishi va zarur bo'lganda elektr energiyasini xisobga olish priborlarini ularsh sxemasini tekshirib ko'rishi kerak. "Iste'molchi" tomonidan elektr energiyasi sarfi to'g'risida "Ta'minotchi korxona"ga belgilangan shakl bo'yicha o'z qo'li bilan, faksimil elektron yoki pochta aloqasi orqali taqdim etilgan xisobot yuridik shaxslar xamda tadbirdorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar uchun iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi xajmini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (EHNAT) ning joriy etilishi munosabati bilan iste'molchilarning xisobga olish priborlaridagi ko'rsatkichlar avtomatlashtirilgan tizimning texnik parametrlariga muvofiq, biroq bir oyda kamida bir marta yoki iste'molchining buyurtmasi bo'yicha yozib olinadi.

"Ta'minotchi korxona" "Iste'molchi"ning shaxsiy xisob-raqam va xisobga olish priborlarining xolati xaqida batassil ma'lumotlar doimiy asosda shakllantirilishi va idoralararo elektron xamkorlik qilish tizimiga real vaqt rejimida yuborilishini ta'minlaydi.

3.12. *SHartnomada hisob-kitob davri uchun ko'rsatilgan energiya miqdordan 5 foizdan ortiq miqdorda energiya iste'mol qilganda, "Iste'molchi"dan shartnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiq iste'mol qilingan elektr energiyasi ja'mi hajmi uchun belgilangan tarifning 1,15 baravari miqdorida to'lov undiriladi.*

"Iste'molchi"ning elektr energiyasi haqini to'lash, reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun tarifga ustamalar, shuningdek, noqonuniy foydalanilgan elektr energiyasi qayta hisob-kitobi va penya bo'yicha qarzi bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi (oldindan haq to'lash) sifatida hisobga olinmaydi.

"Iste'molchi" shartnomada ko'rsatilgan elektr energiyasi xajmini to'liq iste'mol qilmagan taqdirda, avans tariqasida to'langan mablag'lar qaytarib berilmaydi va elektr energiya uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

Hisob-kitob oyidan keyingi kalendar oy tugagach qarzdorlik to'lov muddati o'tgan deb hisoblanadi va to'lov muddati o'tgan har bir kun uchun "Iste'molchi"ga to'lov muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, elektr energiyasi maxsus tartibda etkazib beriladigan korxonalar

uchun esa 0,2 foiz miqdorida penya hisoblab yoziladi. Bunda penyaning umumiy miqdori, muddati o'tgan to'loving 50 foizidan oshmasligi lozim.

3.13. "Iste'molchi" va "Ta'minotchi korxona" har oyda hisob-kitob davri tamom bo'lgandan keyin besh kun mobaynida o'zaro hisob-kitoblarning taqqoslash dalolatnomasini tuzadi.

3.14. "Iste'molchi"ni quyidagi hollarda elektr tarmoqlaridan uziladi:

shartnomaviy majburiyatlari bajarilmaganda;

hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi oqibatida foydalanilgan elektr energiyasi uchun qarzdorlik mavjud bo'lganda;

Ta'minotchi korxona talabnomalari bajarilmaganda, shu jumladan, uning tegishli vakillariga hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini olishga yo'l qo'yilmaganda;

hisobga olish priborlarini qasddan buzganda, ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga tashqaridan aralashish hatti-harakatlar amalga oshirilganda;

elektr energiyasidan noqonuniy foydalanilgani, elektr tarmoqlariga noqonuniy ulanish, talon-taroj qilish yoki elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzishning boshqa holatlari aniqlanganda.

Yagona elektr energetika tizimida elektr energiya va quvvatda tanqislik vujudga kelganda, avariyalarga yo'l qo'ymaslik va iste'molchilarning tartibsiz uzib qo'yilishining oldini olish maqsadida hududiy elektr tarmoqlari korxonasi o'chirish vaqtini ko'rsatgan holda, iste'molchilardan reklamalar, illyuminatsiyalar, bino va inshootlarni yoritgichlarni, elektr isitish va issiq suv bilan ta'minlash qurilmalarini o'chirib qo'yishni talabi bajarilmaganda.

3.15. Hisobga olinmagan energiya uchun amalga oshirilgan qayta hisob-kitob, "Iste'molchi"ni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

3.16. "Iste'molchi" tomonidan qoidabuzarlik holati bartaraf etilib, mavjud qarzdorlik va to'lov paytidagi bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida to'lov undirilgandan so'ng tarmoqqa qayta ulanadi (EHNATga ulangan iste'molchilar bundan mustasno).

3.17. "Iste'molchi" elektr tarmoqlarining texnik holatini ta'minlash bo'yicha ekspluatatsiya xarajatlari uchun subiste'molchilar, iste'molchi bilan subiste'molchi o'rtasida tuzilgan aloxida shartnomalar bo'yicha elektr energiyasining umumiy xajmidan olinadigan ulushga mutanosib ravishda xaq to'laydi.

Ekspluatatsiya xarajatlarini subiste'molchiga beriladigan elektr energiyasi tarifiga qo'shishga ruxsat etilmaydi.

3.18. "Iste'molchi" tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun to'lov tariflari quyidagi holarda aholi uchun belgilangan tariflarga tenglashtiriladi:

O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida" gi O'RQ 327-son Qonunning 28-moddasiga asosan Oilaviy korxona turar joydan bir vaqtning o'zida unda istiqomat qilgan holda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda elektr energiyasi haqini to'lash aholi uchun belgilangan tariflar bo'yicha va shartlar asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 10 sentyabrdagi 525-f-sonli Farmoyishiga asosan O'zbekiston Respublikasi hududidagi diniy tashkilotlar 2003 yilning 1 sentyabridan boshlab ularga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar elektr energiyasiga to'lovlarni aholi uchun belgilangan tariflar bo'yicha to'laydilar.

*

*

IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:

“Iste'molchi”ning elektr qurilmalarini “Ta'minotchi korxona” elektr tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq o'rnatilgan tartibda ulash;

sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda elektr energiyasini olish;

elektr energiyasi etkazib berishning to'xtalishi yoki to'xtatib qo'yilishi sabablari to'g'risida belgilangan tartibda axborot olish;

“Ta'minotchi korxona”ga iste'mol qiladigan energiya hajmlarining o'zgartirilishi to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritish. Bunda energiyaning shartnomadagi hajmini o'zgartirish bo'yicha taklif mo'ljallanayotgan o'zgartirishdan oldin, tegishli miqdor uchun 100 % to'lov amalga oshirilgan taqdirda, 10 kundan kechikmay (joriy oy tugagungacha) berilishi lozim;

elektr energiyasi to'liq hajmda etkazib berilmasligi yoki sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lмаган elektr energiya etkazib berilishi oqibatida etkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplatish;

SHartnomani qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama tartibda bekor qilish;

SHartnoma bekor qilganda foydalanilmagan elektr energiyasi miqdori uchun to'langan mablag'ni qaytarilishini talab qilish;

Elektr energiyasi etkazib berilishi to'xtatilganda etkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

elektr ta'minoti shartnomasini tuzishda va bajarishda yuzaga kelayotgan nizolarni hal etish uchun sudga, monopoliyaga qarshi davlat organiga yoki bo'yunuvi bo'yicha yuqori organga (mansabdor shaxsga) murojaat qilish.

“Iste'molchi” qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

4.2. “Iste'molchi” quyidagilarga majbur:

hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan belgilangan elektr energiyasini iste'mol qilish rejimiga rioya etish;

foydalilanigan elektr energiyasi (quvvati) uchun o'z vaqtida haq to'lash;

ishlatilayotgan elektr qurilmalari, asboblar va asbob-uskunalarining zarur texnik holatini va iste'molchilarining elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalariiga rioya qilinishini ta'minlash. hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga yoki elektr ta'minoti korxonasiga elektr asbob-uskunalarining nosozligi to'g'risida xabar qilish;

elektr energiyasidan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

«O'zenergoinspeksiyanining» yozma ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish;

Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalari talablariga rioya etish;

o'rnatilgan tartibda hududiy elektr tarmoqlari korxonasi vakiliga elektr energiyasini hisobga olish asboblarini ko'rshiga imkon berish;

yil mobaynida yangidan ishga tushiriladigan elektr qurilmalaridan foydalanish boshlanishidan kamida bir oy oldin elektr energiyasining zarur miqdori uchun 100 % oldindan to'lov amalga oshirilgan taqdirda “Ta'minotchi korxona”ga buyurtmanoma berish;

kelgusi yil uchun elektr energiyasiga bo'lган ehtiyojni aniqlashda elektr energiyasini elektr tarmoqlaridan uzatishda. ishlab chiqariladigan maxsulotning (ishlar turlarining) texnologik jarayoni ishlab chiqarish ehtiyojlariga, ishlab chiqarish binolari va ma'muriy binolarni yoritish, isitish, shamollatish uchun elektr energiya sarfini, shuningdek, ushbu elektr tarmoqlariga ulangan subiste'molchilarining ehtiyojini hisobga olish.

SHuningdek, ulangan quvvati 5 Mvt va undan ortiq bo'lgan "Iste'molchi" "Ta'minotchi korxona"ning talabiga ko'ra quyidagilarni hisobga olishi va bu haqida xabar berishi shart:

iste'mol qilinayotgan quvvatning har sutkalik, har oylik sarfi va amaldagi miqdori;

yagona elektr energetika tizimining eng ko'p va eng kam yuklamalni davrlarida reaktiv energiya va quvvatning har sutkalik sarfi;

yagona elektr energetika tizimining eng ko'p yuklamasining o'tish davrida aktiv energiya (quvvat)ning har 30 daqiqadagi sarfi.

Ulangan quvvati 250 kVa va undan ortiq bo'lgan iste'molchilar yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlar bilan birgalikda quyidagilarga majbur:

mahsulot birligini ishlab chiqarish (ishlarni amalga oshirish) uchun elektr energiyasi sarfining texnik va iqlisodiy jihatdan asoslangan ilg'or normalarini ishlab chiqish - umumiy ishlab chiqarish va texnologik; yakka tartibdagi va guruh bo'yicha; yillik, choraklik va oylik - ularni ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyasi takomillashtirilishi (o'zgartirilishi) va yangi texnika joriy etilishiga qarab qayta ko'rib chiqish;

korxona bo'yicha, shu jumladan ko'p energiya sarflaydigan uskunalar, sexlar va iste'molchilar guruhlari bo'yicha elektr energiyasi balanslarini tuzish hamda ular assosida ishlab chiqarish jarayonlarida elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini tahlil qilish. elektr energiyasining samarasiz sarflanishi va isrof bo'lishini aniqlash. ularni kamaytirish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

kelgusi davr uchun elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni va elektr tarmoqlarining energiya o'tkazish qobiliyatini oshirish. elektr ta'minoti sxemalarini takomillashtirish zaruriyatini aniqlash maqsadida (mahsulot ishlab chiqarishning, bajariladigan ish turlarining mo'ljallanayotgan proqnoz hajmlaridan va elektr energiyasi sarfi me'yorlaridan kelib chiqib, ularni kamaytirish va elektr energiyasini tejashni hisobga olgan holda) elektr energiyasining bir yil va kelgusi davr uchun balanslarini tuzish;

mahsulot (ishlar) birligiga elektr energiyasi sarfining tasdiqlangan me'yorlariga rioxqa qilish va ularni kamaytirish bo'yicha belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

elektr energiyasini tejash bo'yicha (yillik va uzoq istiqbol uchun) tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

"Iste'molchi" "Ta'minotchi korxona" tomonidan belgilangan energiya iste'molini cheklash jadvalini bajarishi shart.

"Iste'molchi" qonun hujjalari muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

4.3. "Ta'minotchi korxona" quyidagi huquqlarga ega:

"Iste'molchi" dan shartnomada belgilangan o'z majburiyatlarini lozim darajasida bajarishini talab etish;

ushbu shartnomaga shartlari bajarilmaganda yoki buzilganda "Iste'molchi" tomonidan etkazilgan amaldagi zararni belgilangan tartibda qoplatish;

avariya rejimida "Iste'molchi"ni elektr tarmog'idan uzib ko'yish;

EHNATga ulangan yoki elektr energiyasiga oldindan haq to'lash qurilmasiga ega hisobga olish pribori bo'lgan iste'molchini oldindan to'langan haq tugaganda elektr tarmoqlaridan uzish.

Elektr tarmog'i xo'jaligi ob'ektlaridagi avariyalarning oldini olish va bartaraf etish yoki odamlarning xavfsizligini ta'minlash ishlari bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni ko'rish zarurati bo'lganda. "Iste'molchi" bilan kelishmasdan va uni ogoxlantirmsadan energiya etkazib berishni to'xtatish yoki cheklash.

"Ta'minotchi korxona" qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

Mazkur shartnomaga asosan “Iste’molchi”ni elektr tarmoqlaridan uzilgandan keyin yuzaga kelgan xolat uchun “Ta’minotchi korxona” javobgar bo’lmaydi.

4.4. “Ta’minotchi korxona” quyidagi larga majbur:

“Iste’molchi”ga elektr energiyasini elektr tarmog’i orqali elektr tarmoqlarining balans bo’yicha mansublik bo’limish chegarasigacha shartnomada ko’rsatilgan xajmda muntazam etkazib berish;

uskunalar, elektr uzatish liniyalarini, hisobga olish priborlaridan foydalanish, ularga texnik xizmat ko’rsatish va ta’mirlash, shuningdek, o’z elektr xo’jaligi ob’ektlaridagi nosozliklarni bartaraf qilish;

elektr tarmog’i ho’jaligi ob’ektlarini rejali tufayli elektr energiyasi bilan ta’minlashdagi mumkin bo’lgan uzilishlar to’g’risida kamida 3 kun oldin ogohlantirish;

“Iste’molchi”ni elektr energiyasini etkazib berilishi to’xtatilishi va to’xtatilish sabablari to’g’risida xabardor qilish;

kiritilayotgan cheklashlar to’g’risida, cheklashlarni xajmi va vaqtin ko’rsatilgan holda “Iste’molchiga” oldindan xabar berish;

elektr energiyasi to’liq etkazib berilmaganligi yoki elektr ta’minotidagi boshqa buzilishlar to’g’risidagi “Iste’molchi”ning arizasini, ariza olingan kundan boshlab 10 kundan kechiktirmay ko’rib chikish, bartaraf etish va batatsil javob yuborish;

“Iste’molchi”ga o’rnatalgan tartibda etkazib berilgan energiya hisobini yuritish;

“Iste’molchi”ning belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq besh kun muddatda elektr energiyasining oylik shartnomaviy hajmiga o’zgartirishlar kiritish, elektr energiyasining oylik shartnomaviy miqdorini ko’paytirish (kamaytirish) mumkin bo’lmagan taqdirda - bu haqida, rad etish sababini ko’rsatgan holda, iste’molchiga xabar qilish;

“Iste’molchi”da o’rnatalgan hisobga olish priborlarini almashtirish va o’rnatalish, plombalashni ta’minlash;

davlat standartiga muvofiq bo’lgan elektr energiyasini etkazib berish.

Ta’minotchi korxona qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Elektr ta’minoti shartnomasi bo’yicha taraflar O’zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda javobgar bo’ladi shuningdek, shartnoma shartlari bajarilmagan yoki tegishli tarzda bajarilmagan hollarda. “Ta’minotchi korxona” buning natijasida etkazilgan haqiqiy zararni qoplashga, “Iste’molchi” esa etkazilgan haqiqiy zararni qoplashga majbur.

5.2. “Ta’minotchi korxona” “Iste’molchi” oldida moddiy javobgar bo’lmaydi agar:

“Iste’molchi” elektr energiyasi iste’molining belgilangan rejimiga rivoja qilmay, elektr energiyasi iste’moli yoki quvvatining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo’l qo’yganda. “Ta’minotchi korxona” tomonidan belgilangan elektr energiyasi cheklash jadvali bajarmagani tufayli past sifatli elektr energiyasi etkazib berilganligi uchun;

zaxira manbai avtomatik ishga tushganda, avtomatik qayta ulash va avtomatik tarzda chastotani sozlash bilan bog’lik o’chirishlar vaqtida elektr energiyasini etkazib berish borasidagi tanaffuslar uchun “Iste’molchi” oldida moddiy javobgar bo’lmaydi.

5.3. Tomonlar ularning xohish va harakatlariga bog’liq bo’lmagan tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar sababli ushbu sharoitlarda qaytarib bo’lmaydigan va oldindan bilib bo’lmaydigan favqulodda holatlarni o’z ichiga olgan engib bo’lmas kuch (fors-major) oqibatida o’z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajara olmasa, tomonlardan hech biri o’z majburiyatlarini to’liq yoki qisman bajarmagani uchun javob bermaydi.

5.4. Mazkur shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik va nizolar muzokara o'tkazish orqali hal qilinadi. Kelishmovchiliklarni muzokara o'tkazish orqali hal qilishning iloji bo'limganda, ular qonunchilikda belgilangan tartibida hal qilinadi.

5.5. Elektr energiyasi yagona elektr energetika tizimidan tranzit bo'yicha iste'molchining elektr tarmog'i orqali hududiy elektr tarmoqlari korxonasing elektr tarmog'iga uzatilganda, iste'molchi tarmoqlaridagi elektr energiyasi texnologik sarfining bir qismi, iste'molchining elektr tarmog'iga kelib tushgan elektr energiyasining umumiy miqdoriga nisbatan hududiy elektr tarmoqlari korxonasing elektr tarmog'iga iste'molchi tomonidan uzatilgan elektr energiyasi miqdoriga mutanosib ravishda, yagona elektr energetika tizimining elektr tarmoqlaridagi texnologik sarflarga o'tkaziladi.

VI. YAKUNIY SHARTLAR

6.1. SHartnomha 20 32 yil 31.12. gacha bo'lgan muddatga tuziladi.

SHartnomaning amal qilish muddati tugaganda, tomonlardan biri uni uzaytirish yoki bekor qilish bo'yicha ariza bermagan bo'lsa, shartnomha keyingi har bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi (Byudjet tashkilotlari bundan mustasno). Ariza ushbu SHartnomaning amal qilish muddati tugashidan bir oy oldin taqdim etilishi lozim.

6.2. Mazkur shartnomha bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan va tomonlarning har birida saqlanayotgan ikki (Byudjet tashkilotlari uchun uch) nusxada tuzilgan. SHartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

6.3. Tomonlarning birini tashabbusi bilan shartnomani muddatidan oldin bekor qilish, ikkinchi tomonni bekor qilish muddatidan o'ttiz kun oldin habardor qilgan xolda va tomonlar o'zaro hisob-kitob qilishi sharti bilan bekor qilinishi mumkin. Bekor qilish to'g'risida xabarnoma yozma ravishda yuboriladi.

6.4. Barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular faqat yozma ravishda amalga oshirilib, tomonlarning vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy xisoblanadi.

6.5. mazkur shartnomha talablarida nazarda tutilmagan tartib – qoidalar Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22 son qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari hamda boshqa amaldagi normativ – huquqiy xujjatlar talablariga muvofiq tartibga solinadi.

VII. TOMONLARNING MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

ISTE'MOLCHI:

Yuridik manzili Olmaliq shahar Amu Temur qiziqay

Hisobraqami 1000 218 60 27404 1011 205 018001

Bank kodi (MFO) 00014 STIR (INN) 200603343

Respublika va mahalliy byudjetdan molijalashiriladigan Iste'molchilar uchun:

Byudjet fondining hisobraqami 23402000 300100001010

Bank kodi (MFO) 00014 STIR (INN) 201122919

Byudjetdan tashqari fondning hisobraqami

Bank kodi (MFO) _____ STIR (INN) _____

QQS to'lovchining kodi _____

Telefonlar: 70614-25-64 Faks: _____ e.meil: _____

(Iste'molchining, shu jumladan rahbarining uyali faks telefonlari kodi elektron manzil yoziladi)

Kadastr raqami _____

Statistik kodlar:

IFUT (OKED) 5

DBIBT (SOOGU) _____

MHOBT (SOATO) _____

(KFS) _____

TSHK (KOPF) _____

TA'MINOTCHI KORXONA:

Pochta manzili Dumanov ul. 14

Hisobraqami 22 636 000 500124958428

Bank kodi (MFO) 00490 STIR (INN) 201 221 748

QQS to'lovchining kodi _____

Telefonlar: 78 150-47-50 Faks: _____

Statistik kodlar:

DBIBT (SOOGU) _____

MHOBT (SOATO) _____

Iste'molchi:



Ta'minotchi korxona:
M.O., imzo: Amirbekov F.I.S.H.

YURISTKONSULT HULOSASI:

Mazkur elektr energiyadan foydalanish shartnomasi Olmaliq yuristkonsult Doniyor Iskandarov

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22-sonli qarori talablariga muvofiq tuzilgan. Tomonlar o'tasida mazkur shartnomani tuzish uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchilik talablari moniylik qilmaydi. SHartnomalar ishtirokchilarining xuquq va majburiyatlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi SHartnomalar" faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni talablariga javob beradi. SHartnomalar shartlari yuzasidan sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni talablariga javob beradi. SHartnomalar shartlari yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan javobgarlik masalasi tomonlar o'tasida qonuniy kelishilgan. SHartnomalar yuzasidan shartnomalar ishtirokchilarini o'tasida tuzilgan hal qilish tartibi belgilangan.

yurist: Adimos

Yuristkonsult: Jony
(imzosi)